



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjialiyevena</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Saida Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Xakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
Сулейманова Нилуфар Камилловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'ribojevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafuz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	



STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING ZARURIYATI

Tashibekova Munajat Xoshimovna
Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda ijodkor o'quvchi shaxsini shakllantirish, ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyati, fikrlash malakasi, muloqot qilish, ijodkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy tendensiyalar hamda kompetensiyaviy yondashuvlar nazariy va empirik jihatdan tadqiq etilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim o'quv predmetlarini STEAM topshiriqlari asosida tashkil etishning afzalliklari, ijodiy muhit yaratish bosqichlari, kreativ kompetensiyalarni shakllantirish borasidagi mavjud ehtiyojlar amaliy tahlil qilingan, ijodkorlikka asoslangan g'oyalarni ishlab chiqish jarayoni metodik jihatdan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: intellektual qobiliyat, fikrlash, muloqot qilish ko'nikmalari, ijodkorlik va jamoada ishlash, kompetensiyaviy yondashuvlar, shaxsiy-emotsional, shaxsiy-motivatsion, intellektual, shaxsiy va motivatsion sohalar, kreativ-yo'naltiruvchi, izlanishli-faoliyatli jarayon, kreativ-adaptiv, interaktiv kreativlik.

Abstract: This article theoretically and empirically studies modern trends and competency-based approaches that contribute to the development of a creative student's personality in primary education, as well as to the enhancement of learners' intellectual abilities, thinking, communication, creativity, and teamwork skills. The article also presents a practical analysis of the advantages of organizing primary education subjects based on STEAM tasks, the stages of creating a creative environment, and the existing needs in forming creative competencies. Furthermore, the process of developing creativity-based ideas is methodically analyzed.

Key words: intellectual abilities, thinking, communication skills, creativity and teamwork, competency-based approaches, personal-emotional, personal-motivational, intellectual, personal and motivational domains, creative-oriented, exploratory-activity process, creative-adaptive, interactive creativity.

Аннотация: В данной статье теоретически и эмпирически исследованы современные тенденции и компетентностные подходы, способствующие формированию личности творческого ученика в начальном образовании, развитию интеллектуальных способностей обучающихся, навыков мышления, общения, творчества и командной работы. Также проведён практический анализ преимуществ организации учебных предметов начального образования на основе заданий STEAM, этапов создания творческой среды, существующих потребностей в формировании креативных компетенций, а также методически проанализирована разработка идей, основанных на творчестве.

Ключевые слова: интеллектуальные способности, мышление, коммуникативные навыки, креативность и командная работа, компетентностные подходы, личностно-эмоциональная, личностно-мотивационная, интеллектуальная сферы, креативно-ориентированная, исследовательско-деятельностный процесс, креативно-адаптивная, интерактивная креативность.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi ta'lim sohasining rivojlanishi hamda jamiyatning intellektual salohiyatiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ta'lim mazmuni va sifatini zamon talablari darajasida yaxshilash, mazkur sohadagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning yetakchi mamlakatlarida ta'limni rivojlantirish va samaradorligini oshirish maqsadida yosh avlodni hayotiy bilimlar mazmuni va shakllarini boshlang'ich maktab davridanoq ongli tanlashga, keyinchalik egallaydigan kasbining pedagogik, psixologik, ijtimoiy xususiyatlari haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishga, shuningdek zamonaviy kasblarga xos shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga erishish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan.

Boshlang'ich maktab davri bola intellektual salohiyatining shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Mazkur bosqichni zamonaviy tendensiyalar, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida nazariy va empirik jihatdan tadqiq qilish hamda takomillashtirish, ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyati, fikrlash, muloqot qilish ko'nikmalari, ijodkorlik va jamoada ishlash kabi XXI asr kompetensiyalarini shakllantiruvchi maxsus metodika va dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish ijtimoiy zaruriyatga aylanmoqda. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish jamiyat hayotida tub burilishlarni amalga oshiradi. Mamlakatimizda ta'limning barcha bosqichlarida o'qitish jarayoniga zamonaviy innovatsion yondashuvlarni, xususan STEAM yondashuvini tatbiq etish bir nechta sohada faoliyat ko'rsata oladigan keng profilli, kuchli salohiyatli yoshlarni o'qitishni maqsad qilgan. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *"Matematika – hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi."*

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativlik tushunchasining konseptual asoslari, pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili hamda mazkur yo'nalishdagi yondashuvlar mazmunini o'rganish asosida olimlar izlanishlarida quyidagi jihatlar mavjudligi aniqlangan.

X. B. Xazratova, D. B. Bogoyavlenskaya, E. P. Torrens, K. Ubran kabi nazariyotchilar kreativlikni intellektual, shaxsiy va motivatsion sohalarni qamrab oluvchi psixometrik va integral voqelik sifatida tahlil qilganlar. Ken Robinson (2011-y.) ta'kidlaganidek, kreativlik o'quvchilarda nafaqat yangi g'oyalarni ilgari surishni taqozo etadi, balki o'quv masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish va tahlil etish ko'nikmalarini ham shakllantira olishi lozim. Kreativlik jarayoni boshlang'ich g'oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, zarur bo'lsa, ulardan voz kechishni ham o'z ichiga oladi.

Z. T. Nishanova, E. Bard, V. Davidov va boshqalar o'z izlanishlarida jarayonli-faoliyatli yondashuvga asoslanib, ijodning o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat, maqsad va motivlar bilan uyg'unligini ta'kidlaganlar. Bu yondashuv ijodiy faollikni asosiy omil sifatida belgilaydi. Mazkur tadqiqotlar ijodiy jarayon va uning natijasini o'rganish imkonini beradi hamda ijodkor shaxs faoliyat subyekti sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

V. Karimova, D. Vallas, X. Grubber, J. Nakamura kreativlikning ijtimoiy-madaniy jihatlarini tahlil qilganlar. Mazkur tadqiqotlarda madaniyat kreativlikning yagona determinantlaridan biri sifatida qaralgan hamda ijtimoiy-madaniy muhit kreativlikni rivojlantirish nuqtayi nazaridan izohlangan. Bunday yondashuvlar kreativlikni o'quvchilarda ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir orqali o'rganilishini asoslab bergan.

D. Sobirova, T. M. Ambayl, A. Maslou, F. Zenasni, T. Lyubart, K. Mushiru, S. Tordjman kabi olimlar kreativlikning shaxsiy-emotsional va shaxsiy-motivatsion jihatlarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida shaxsiy o'sish motivatsiyasi hamda o'z-o'zini namoyon etish ijodning asosi sifatida nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, bu yondashuvlar orqali shaxsni chuqur o'rganish, o'z-o'zini namoyon etishga e'tibor qaratish va ichki ijodiy motivatsiyaning muhim jihatlarini tahlil etish imkoniyati yaratilgan.

M. Xolodnayaning fikricha, *"kreativlik keng va tor ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Tor ma'nodagi kreativlik bu divergent tafakkurdir. Keng ma'noda esa, kreativlik tushunchasi ijodiy intellektual qobiliyatlarning namoyon bo'lishi, hayot tajribasiga nimadir yangilik olib kirilishi, yangi muammolarni qo'yish va hal etishdagi betakror g'oyalar tug'ilishi, muammoni hal etish va farazlarni shakllantirishdagi qarama-qarshilik hamda tafakkurning stereotip usullaridan voz kechish qobiliyatidir."*

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari, komponentlari, tarkibiy qismlari va bosqichlari tavsiyalar berilgan. Shuningdek, kreativlik o'quvchilarda nafaqat yangi g'oyalarni ilgari surishni taqozo etadi, balki o'quv masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish va tahlil etish ko'nikmalarini ham shakllantira olishini asoslab beradi. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga tatbiq etilayotgan STEAM topshiriqlari asosida kreativlikka xos g'oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, zarur bo'lsa, ulardan voz kechishni ham o'z ichiga olishi atroflicha tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik tafakkurga xos xususiyat ekanligi bir qator psixologlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, amerikalik olim J. Gilford tafakkurni ikki turga – konvergent va divergent tafakkurga – ajratgan hamda kreativlikni ifodalovchi semantik egiluvchanlik, obrazli moslashuvchan egiluvchanlik, semantik tarqoq egiluvchanlik, originallik, qiziquvchanlik, farazlarni ishlab chiqish qobiliyati, irrelevantlik (qo'zg'atuvchiga reaksiyalarni mantiqiy bog'lanmaganligi), hayolparastlik (muammoning yechimi real



hayotdan uzoq, reaksiya va stimulyatsiya o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishning o'ziga xosligi) kabi intellektual qobiliyatlarni tasniflagan.

H. Gardner esa intellektning lingvistik, mantiqiy-matematik, fazoviy, kinestetik, musiqiy, intrapersonal va interpersonal turlarini ajratib, ularning tarkibida umumiy kreativlik maxsus xususiyat sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlagan.

P. Torrens o'z izlanishlarida kreativlikni oddiy va madaniy kreativlik turlariga ajratgan. Xorijlik pedagoglar, xususan, Patti Drapo ta'kidlaganidek, *“bir shaxsning, ayniqsa o'qituvchining kreativligi boshqa (o'quvchilarni) ijodiy jarayonni tashkil etishga ruhlantiradi.”*

Kreativlik yuqumlilik xususiyatiga ega: kreativ bo'lish uchun inson ko'proq ijodkor insonlar bilan muloqotda bo'lishi va doimo izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikma shakllantirilgani kabi, kreativ fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirish mumkin. Bu o'quvchilarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash ularga noodatiy tarzda fikrlashni o'rgatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirish muammosining amaliyotdagi holatini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi. Olib borilgan tahlillar va kuzatishlarga ko'ra, boshlang'ich maktab amaliyotida o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish borasida quyidagi ehtiyojlar mavjudligi aniqlandi:

- boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy faoliyat tajribasini egallashga tayyorgarligi (faollik, tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash, o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi);
- ta'lim oluvchilarning ijodkor o'quvchi sifatida faol rivojlanishi (muassasa, jamoa va tengdoshlari o'rtasidagi vaziyatlar hamda kundalik hayotiy muammolar orqali);
- ijodiy ta'limga mazmunli yondashuv (o'quvchining real va potensial imkoniyatlarini hisobga olish);
- o'quvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirish jarayonining mahsuldorligini ta'minlash (ijodkorlikka yo'naltirilgan topshiriqlar va innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash);
- jarayon samaradorligini oshirish (o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlangan ijodkor shaxsni shakllantirish).

1-jadval: O'quvchilarning kreativ kompetensiyalarini shakllantirish bosqichlari

Bosqich	STEAMga asoslangan faoliyat shakllari va ish turlari	Bajariladigan faoliyat va erishiladigan natijalar
Kreativ-adaptiv	Yangilik yaratishga asoslangan STEAM muhitini shakllantirish va o'quvchilarni ijodiy jarayonga psixologik moslashtirish	Ijod jarayoniga qiziqishni shakllantirish, STEAM asosidagi ijodiy jarayonga moslashish
Kreativ-simulativ	STEAM fanlariga asoslangan muammoli-izlanishli, simulyativ topshiriqlar ishlab chiqish	Yangilik yaratishga qaratilgan vaziyatlarda ishtirok etish istagini bildiradi, ishtiyoq shakllanadi
Kreativ-yo'naltiruvchi	Ijodkorlikka yo'naltiruvchi STEAM topshiriqlari va muammoli vaziyatlar yaratish, maxsus ko'rsatmalar berish	O'qituvchi tomonidan berilgan ijodiy topshiriqlarni bajaradi, izlanishli faoliyatga kirishadi, ko'rsatmalarga amal qiladi
Izlanishli-faoliyatli	Mustaqil kichik tadqiqotlar uchun vaziyatlar yaratish, STEAM loyihalarini ishlab chiqish va sinf kesimida izlanishga undovchi variativ dasturlar tayyorlash	Ijodiy faollik, tashabbuskorlik, noodatiy fikrlash, improvizatsiya, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish malakasini rivojlantiradi
Interaktiv-kreativ	Yaratuvchanlik mahsulini hayotga tadbiiq etish, yangilikni baholash va prognozlash, STEAM fanlari bo'yicha egallangan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish	Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay oladi, muqobil variantlar bilan solishtiradi, baholaydi, sinf jamoasi miqyosida ommalashtiradi, istiqbolli faoliyat rejasini tuzadi

Olib borilgan tahlillar asosida, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik sifatini shakllantirishda quyidagi yo'nalishdagi faoliyatlarni tashkil etish maqsadga muvofiq deb topildi:

- o'quvchilarda ijodkorlik, ya'ni kreativ sifatlarini namoyon etish va mustaqil, erkin faoliyat yuritish uchun ijodiy muhit hamda zarur shart-sharoit yaratish;
- o'qituvchi va o'quvchilar, shuningdek o'quvchilar jamoasi o'rtasidagi o'zaro ijodiy ta'sirni ta'minlash, o'zaro munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash;

- fanlarga qiziqishni oshirish maqsadida mantiqiy va ijodiy topshiriqlar, keys topshiriqlari, rebuslar, audio va videokontentlar asosida yaratilgan muammoli vaziyatlar va fanga oid axborot manbalariga ega maxsus didaktik materiallar ishlab chiqish;
- ta'lim jarayonida mavjud muammolarga ijodiy yondashish ko'nikmasini shakllantirish;
- har bir o'quvchining faol ishtirokini ta'minlash va ularning natijaga yo'naltirilganligini oshirish;
- ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish; o'quvchilarning "ichki olami"ga ta'sir etuvchi pedagogik ta'sir intensivligini ta'minlash.

XULOSA

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning aqliy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda kreativlik sifatlarini rivojlantirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishi uchun zamin yaratiladi. Ammo amaliyotda boshlang'ich sinf o'quvchilari-ning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish ko'pincha faqat bilimlarni yodlashga asoslangan ta'lim bilan cheklanib qolmoqda. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim amaliyotida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator samarali harakatlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ta'lim tamoyillari va qonuniyatlarida ko'rsatilgan talablarni kompleks amalga oshirishda bir qator to'siqlar mavjud. Ya'ni, ta'lim oluvchilarda o'zaro hamkorlikka asoslangan ijodiy-izlanishli faoliyat tajribasini shakllantirishda tizimli va mahsuldor o'zlashtirishni ta'minlashga qaratilgan aniq maqsadlarni ishlab chiqish, o'qituvchining yaratgan ijodiy muhiti jarayonida o'quvchi shaxsiga talabchanlik bilan hurmatni uyg'un olib borish, ta'lim jarayonining tizimligi va uzluksizligi, g'oyaviy yo'naltirilganligi hamda yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish bilan bog'liq sustkashliklar kuzatilmoqda. Bugungi kunda o'quvchi ta'lim jarayonining sust eshituvchisidan faol ishtirokchisiga aylangandagina, u ijodiy va mustaqil fikrlovchi XXI asrning ijodkor yoshlari sifatida kamol topadi.

Kreativlik – kishining an'anaviy tafakkur chegaralaridan chiqib, g'ayrioddiy g'oyalarni hamda muammolarning noyob, betakror yechimini topishda namoyon bo'ladigan qobiliyatidir. U o'quvchining butun hayoti davomida egallaydigan bir qator sifatlar majmuidir. O'qituvchi tomonidan sinf jamoasiga yoki o'quvchining o'ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usuli, shuningdek, ijodkor insonlarning ma'naviy, aloqaviy va ijtimoiy adaptatsiyalanishini ta'minlovchi madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan kategoriyadir, deb ta'riflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv. 31-01-2020 y.
2. Холодная, М. А. (2008). Теоретические представления Л. М. Веккера о природе концептуальных структур в контексте исследования креативности. Психологический журнал, № 5, 21–31.
3. Drapeau, Patti. (2014). Sparking Student Creativity: Practical Ways to Promote Innovative Thinking and Problem Solving. Alexandria, Virginia, USA: ASCD. pp. 37–124.
4. Guilford, J. P., & Hoepfner, R. (1971). The Analysis of Intelligence. New York. p. 125.
5. Torrance, E. P. (1962). Guiding Creative Talent. Englewood Cliffs, N.J.: Prentice-Hall. pp. 67–84.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.